XALQ DEPUTATLARI ZAFAROBOD TUMAN KENGASHI QARORI

2024 - yil 27 - fevral VI-64-20-3-50-K/24 Zafarobod tuman hokimligi

Tuman mahalliy budjetidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

Tuman mahalliy budjetining 2024 yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish maqsadida, O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, “Budjet kodeksi”ning 126-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasining 2024 yil 29 yanvardagi 02-08-sonli xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Do‘stnazarov)ga, tuman mahalliy budjetining 2024 yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan:, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 10 avgustdagi “Harbiy-ma’muriy sektorlarni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 659-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida 395 000 000 (uch yuz to‘qson besh million) so‘m mablag‘ni tuman hokimligiga;

- tuman hokimligi balansida mavjud bo‘lgan xizmat avtomashinalariga ehtiyot qismlar harid qilish xarajatlari uchun 50 000 000 (ellik million) so‘m mablag‘ni tuman hokimligiga ajratish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (Ya.Narziyev)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Do‘stnazarov) ajratilgan mablag‘ning maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman

Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari v.b J.Adilov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **J.Quvandiqov**